


Islom Karimovning Milliy ma'naviy
tiklanish konsepsiyasi, uning milliy
mustaqillikni mustahkamlash va
milliy taraqqiyotidagi ahamiyati.

Собиров Рустам

**Тошкент Давлат юридик
институтини 2-Хуқуқ, 2-курс, Б
поток талабаси**

Reja:



1. I.Karimov tomonidan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining ishlab chiqarilishi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati.

2. I.Karimovning ma'naviyat tushunchasiga ta'rifi, uning nazariy va metodologik ahamiyati.

3. Mustaqillik yillarida milliy ma'naviyatning tiklanishi va rivojlanishida I.Karimovning hizmatlari.

4. Milliy va manaviy tiklanishimiz borasida prezidentimiz I.Karimov tomonidan amalgam oshirilgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan konsepsiyalar.

Adabiyotlar.

1. Islom Karimov. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" T., "O'zbekiston", 1996



2. Islom Karimov. "Istiqlol va ma'naviyat" T., "O'zbekiston" 1994



3. Islom Karimov. "O'zbekiston : milliy istiqlol , iqtisod, siyosat, mafkura" T.
"O'zbekiston" 1996



4. Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida". T., "O'zbekiston" 1994



5. Islom Karimov. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T., "O'zbekiston" 1999



6. Islom Karimov . "Milliy istiqlol mafkurasi- xalq e'tiqodi va buyuk kelajakga ishonchdir.
T., "O'zbekiston" 2000

Nazorat uchun savollar:

1. Milliy - ma'naviy tiklanish deganda nimani tushunasiz?



2. I. Karimov tomonidan "ma'naviyat" tushunchasiga berilgan tarifning mohiyati nimadan iborat. ?



3. Milliy ma'naviyat tiklanishimiz borasidagi prezidentimiz tomonidan amalga oshirilgan muhim nazariy konsepsiyalarni tasnifi. ?



4. I. Karimov tomonidan O'zbekistonda XXI asrda manaviyatni rivojlantirishni qanday vazifalarni belgilab beriladi?



“Xalqimizning manaviy ruhini
mustahkamlash va rivojlantirish-
O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng
muhim vazifasidir” (I.A.Karimov)




Mamlakatimiz va milliy taraqqiyot unga rahbarlik qiluvchi yetakchiga bog'liq bo'ladi. Chunki, u mamlakatning qaysi yo'ldan borishi qanday maqsadlarni ko'zlashi va bajariladigan ishlarini amalgam oshirishning strategiyasini belgilab beradi. Hamda uni real hayotga tadbiq qilish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga olishga qodir bo'ladi.

Mamlakatga rahbarlik qilmoqchi bo'lgan yetakchi uchun yana bir shart shu u o'zi belgilab bergan vazifalar ichidan asosiy halqani topa bilishi va uni belgilab maqsadlarni amalga oshirishga hizmat qildira bildirishiga salohiyati yetarli bo'lishi lozim bo'ladi. Islom Karimov ko'satilgan barcha xususiyatlar va salohiyatni o'zida mujassamlashtirgan rahbar bo'lganligi uchun ham mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik vazifalarni aniq belgilab berdi va uni amalgam oshirishning yo'nalishlari uslublari hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqara oldi.

U o'zining hajmi jihatidan kichik bo'lsa ham ammo mamlakatimizda yangi jamiyat ko'rinishning ilmiy nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatidan mukammal fundamental dastur bo'lgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida mutaqqillikdan so'ng O'zbekistonning rivojlantirishning manaviy sohasidagi strategik vazafalarni ham belgilab berdi.

Islom Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning manaviy-axloqiy negizlarini ko'rsatib berar ekan, "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi", - deb ko'rsatadi va quydagilarni belgilab beradi:




-umuminsoniy
qadryatlarga
sodiqlik;

-xalqimizning
ma'naviy
merosini
mustahkamlash
va
rivojlantirish;

-insonning o'z
imkoniyatlarini
erkin namoyon
qilishi;

-vatanparvarlik




Asarda ana shunday negizlarning mohiyati ham ochib berilgan. Jumladan I.Karimov shunday yozadi: “Mustaqil O‘zbekistonning kuch qudrati man‘bai- xalqimizning umuminsoniy qadryatlariga sodiqligidir.

Ma‘naviyatning milliy taraqqiyotidagi o‘rni va uni o‘zlashtirish zarurligi asarida ilmiy asoslanagan; *“Manaviyat o‘z xalqining tarixini , uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”*.

Prezidentimizning yana bir muhim konseptual g‘oyasi manaviyat shaxsning muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o‘z-o‘zini anglatuvchi va o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslanganligidir.

Shu o‘rinda bir muhim masalaga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi. U ham bo‘lsa “Milliy taraqqiyot” va “Milliy tiklanish” tushunchalarining mohiyati , mazmuni va mezoni masalalaridir.

- 
- **Milliy taraqqiyot**--- evolutsion xarakterga ega. U pastdan yuqoriga tomon ko'tarilishdan iborat bo'lgan jarayondir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jaroyon sifatida namoyon bo'ladi.

- 
- **Milliy tiklanish**—millat taraqqiyoti tarixining ma'lum bir bosqichida ma'lum bir obektiv va sub'ektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan jarayondir.

- 
- Prezidentimizning yuqoridagi asarlarida ilgari surilgan konseptual g'oyalarni umumlashtiradigan bo'lsak ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

-ma'naviy meros va diniy qadryatlarni chuqur o'zlashtirish milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash.

-yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyalari boyitib borish

-yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni chuqur kuchaytirish

-mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish.

Ma'naviyatning inson va millat kamolotidagi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniq bilib olish hamda shu asosda uni rivojlantirish uning mohiyati hamda mazmunini ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi, chunki ma'naviyatni mazmunini bilib olmasdan turib uning inson, millat, xalq va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sir imkoniyatlarini ham aniq tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'naviyat o'z-o'zidan shakllanadigan narsa emas. U avvalo har bir insonni ichki ma'naviy salohiyatini shakllantirish yo'lida barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish, Vatan va millat manfaatlari yo'lida halol fidoyilik bilan mehnat qilish jarayonida shakllanadi.

Shu ma'noda prezidentimiz
"Ma'naviyat - taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak."

"Ma'naviyat... inson ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, iymon irodasini e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch...dir. "

Ma'naviyat qancha yuksak bo'lsa, qilinadigan ishlarning samaradorligi va unumi ham shu darajada yuksak bo'ladi.



O'zbek xalqi 130-yilcha mustamlakachilik ibtidosi ostida yashadi. Bu davr mobaynida uning ilmiy ma'naviy merosi poymol etildi, tarixi sohtalashtirildi, ilmiy, madaniy binobarin ma'naviy merosga ngilistik qarash hukm surib cheklab qo'yildi.



Faqat mustaqillikni qo'lga olishimiz sharofati tufayligina ma'naviy merosini ko'hna va navqiron tariximizni o'rganish jahon sivilizatsiyasidagi munosib o'rnimizni tiklash va demokratik jamiyat qurishdek baxtga musharraf bo'ldik.



Bunday imkoniyatlarni qo'lga kiritishimizda xalqimizning sevimli farzandi, ulkan davlat va siyosat arbobi , yetuk olim vatanparvar va millatparvar inson Islim Karimovning yetakchilik va rahbarlik roli asosiy rol o'ynadi.

Milliy ma'naviy tiklanishimiz borasida Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar quyidagi ilmiy jihatdan yangi nazariy konsepsiya yaratganligida namoyon bo'ldi. Ular quyidagilar:

a) milliy ma'naviy tiklanishimizning ilmiy nazariy konsepsiyasini ishlab chiqqanligi va istiqbolda ma'naviy taraqqiyotimizning XXI- asrdagi vazifalarni belgilab berganligida



b) milliy ma'naviy tiklanishning mamalakatimizning totalitarizmdan demokratik jamiyatga o'tish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab berganligida



c) Uning faqat milliy, ijtimoiy ma'naviy tafakkurimizda emas balki shuning bilan birga umumijtimoiy falsafiy tafakkur taraqqiyotida yangi yo'nalish boshlab berganligida ham namoyon bo'ldi.



Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan barcha ishlar xalqimizni qadrini ko'tarmoqda o'zligini anglashda va mamlakatimizning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Millatimiz adabiyligini mustahkamlamoqda.